

## **Samarqand viloyatida bajarilgan qurilish ishlari**


*2025-yil yanvar-iyun oylari uchun*

- I. Jami bajarilgan qurilish ishlari*
- II. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari*
- III. Qurilish ishlari hajmining korxonalar turlari bo'yicha taqsimoti*
- IV. Qurilish ishlari bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar*

### **I. Jami bajarilgan qurilish ishlari**

2025-yilning yanvar-iyun oylarida, Samarqand viloyatida jami 8 754,4 mlrd so'mlik qurilish ishlari bajarilib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 118,8% ni tashkil etdi.

#### **Bajarilgan qurilish ishlari dinamikasi**



#### **Hududlar kesimida bajarilgan qurilish ishlari hajmi**

	<b>Hajm mlrd so'm</b>	<b>O'sish sur'ati, % da</b>
<b>Samarqand viloyati</b>	<b>8 754,4</b>	<b>118,8</b>
<i>shaharlar</i>		
Samarqand sh.	2 426,5	109,6
Kattaqo'rg'on sh.	101,6	122,4
<i>tumanlar</i>		
Oqdaryo	355,4	116,3
Bulung'ur	179,4	130,6
Jomboy	227,6	119,5
Ishtixon	175,3	125,8
Kattaqo'rg'on	413,1	114,3
Qo'shrabot	178,0	130,1
Narpay	107,6	131,2
Payariq	1 510,5	113,0
Pastdarg'om	526,2	114,7
Paxtachi	113,4	125,7
Samarqand	327,7	191,3
Nurobod	72,4	113,8
Urgut	196,0	114,4
Toyloq	545,2	111,2
Hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmi qo'shgan holda.	1 298,5	139,4

**Mavzuga doir ko'satkichlar:**

[Qurilish ishlari hajmi \(oylik\)](#)

[Qurilish ishlari hajmi \(yillik\)](#)

## **II. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari**


2025-yilning yanvar-iyun oylarida Samarqand viloyatida bajarilgan qurilish ishlaringin iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi quyidagicha:

- Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlaringin asosiy qismi turar joy va yashash uchun mo'ljallanmagan binolarni qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlardan tashkil topdi. Ularning ulushi jami qurilish ishlari hajmida 37,0 % ni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan 68,0 % ni tashkil etdi.

- fuqarolik obyektlarini qurish yo'nalishi 59,1 % ulushni tashkil etib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 111,1 % ni tashkil etdi;

- ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'nalishi 3,9 % ulushni va 2024-yilning mos davriga nisbatan 156,9 % ni tashkil etdi.


### **Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari o'sish sur'ati va hajmi**



### **Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha korxona turlari kesimida qurilish ishlari**

	Bino va inshootlar qurilishi	Fuqarolik obyektlari qurilishi	Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari
Yirik qurilish tashkilotlari hajmi, mlrd so'm	136,3	685,7	16,9
o'sish sur'ati, % da	86,6	4,3 m	184,9
Kichik korxona va mikrofirmalar hajmi, mlrd so'm	1 869,7	4 492,5	318,8
o'sish sur'ati, % da	48,8	117,3	155,6
Norasmiy sektor hajmi, mlrd so'm	1 234,5	-	-
o'sish sur'ati, % da	172,9	-	-

### III.Qurilish ishlari hajmining korxonalar turlari bo'yicha taqsimoti




Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan 2025-yilning yanvar-iyun oyida bajarilgan qurilish ishlari hajmi 838,9 mlrd so'mni tashkil etdi. Ko'rib chiqilayotgan davrda qurilish ishlari hajmi 2024-yilning mos davriga nisbatan 94,2 % ni va ularning umumiy hajmdagi ulushi 9,6 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 76,3 % i to'g'ri kelib, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2024-yilning mos davriga nisbatan 116,3 % ni tashkil etgan holda 6 681,0 mlrd so'm miqdorida qayd etildi.

Norasmiy sektorda qurilish ishlarining ulushi 14,1 % ni yoki 1 234,5 mlrd so'mni tashkil etib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 172,9 % ni tashkil etdi.

- yiriklar hajmi mlrd so'mda
- kichik va mikrofirma hajmi, mlrd so'mda
- norasmiy sektor hajmi, mlrd so'mda
- yiriklar o'sish sur'ati
- kichik va mikrofirma o'sish sur'ati
- norasmiy sektor o'sish sur'ati



### Korxona turlari bo'yicha bajarilgan qurilish ishlari hajmi va o'sish sur'atlari

### Hududlar kesimida korxona turlari bo'yicha bajarilgan qurilish ishlari

	<b>Hajm mlrd so'm</b>			<b>O'sish sur'ati, % da</b>		
	<b>Yirik</b>	<b>Kichik va mikrofirma</b>	<b>Norasmiy sektor</b>	<b>Yirik</b>	<b>Kichik va mikrofirma</b>	<b>Norasmiy sektor</b>
<b>Samarqand viloyati</b>	<b>838,9</b>	<b>6 681,1</b>	<b>1 234,4</b>	<b>94,2</b>	<b>116,3</b>	<b>172,9</b>
<i>shaharlar</i>						
Samarqand sh.	99,7	2 217,2	109,6	115,2	106,7	233,0
Kattaqo'rg'on sh.		80,5	21,1	-	111,1	207,4
<i>tumanlar</i>						
Oqdaryo	27,7	300,8	26,9	97,1	115,2	174,9
Bulung'ur	9,7	132,6	37,1	109,6	129,5	142,7
Jomboy	20,0	183,0	24,6	295,0	105,9	240,2
Ishtixon	10,6	141,0	23,7	241,8	120,5	132,3
Kattaqo'rg'on	7,2	384,2	21,7	107,1	111,0	276,2
Qo'shrabot	76,2	74,8	27,0	133,3	112,7	210,3
Narpay	3,2	74,1	30,3	115,4	124,9	153,8
Payariq	15,3	1 463,9	31,3	36,9	115,2	129,4
Pastdarg'om	195,4	287,3	43,5	96,4	124,2	183,2
Paxtachi	4,6	84,1	24,7	93,9	124,7	139,0
Samarqand	80,5	217,7	29,5	198,5	194,2	156,7
Nurobod	7,5	40,6	24,3	101,6	125,0	101,6
Urgut	4,6	156,7	34,7	37,8	114,0	163,2
Toyloq	145,6	372,8	26,8	51,7	192,2	189,8
Hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmni qo'shgan holda.	131,1	469,8	697,6	133,1	110,8	173,1

Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlaring eng yuqori o'sish sur'atlari Jomboy tumanida (2024-yilning mos davriga nisbatan 2,9 m.), Ishtixon tumani (2,4 m.) va Samarqand shahrida (115,2%) qayd etildi.

Ko'rib chiqilayotgan davrda kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlaring eng yuqori o'sish sur'atlari Samarqand tumanida (2024-yilning mos davriga nisbatan 194,2%), Toyloq tumanida (192,2%) va Bulung'ur tumanida (129,5%) kuzatildi.



#### IV. Qurilish ishlari uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

**Qurilish ishlari** – bino va inshootlarni barpo etish, qayta tiklash, kengaytirish, kapital va joriy ta'mirlash ishlari majmuasi sifatida qurilish ishlab chiqarishining natijasidir.

Qurilish ishlari qiymatiga qurilish uchastkalarining o'zlashtirish ishlari rejasini tuzish va tayyorlash, suv ta'minoti, issiqlik, kanalizatsiya, poydevorlarni o'rnatish, devorlarni ko'tarish, bino konstruksiyalarini montaj qilishning sanitarni-texnika ishlari, boshqa pudrat ishlari (ishga tushirish va sozlash, gidroyuvish ishlari, yer qatlamini ochish, texnik-madaniy ishlar va boshqalar) kiritiladi.

Qurilish ishlarining statistik hisobi hisobot davrining amaldagi narxlarida, qo'shilgan qiymat solig'ini qo'shmagan holda, to'lov muddatidan qat'i nazar, hisobot davrida haqiqatda bajarilgan hajm bo'yicha amalga oshiriladi.

Qurilish ishlari hajmi bo'yicha statistik ma'lumotlar quyidagilar asosida shakllantiriladi:

- a) qurilish faoliyatini olib boruvchi yuridik shaxslarning statistika hisobotlari (oylik, yillik);
- b) kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyatining choraklik tanlanma kuzatuv natijalari;
- d) jismoniy shaxslar tomonidan yakka tartibdagi uy-joy va noturar-joy obyektlar qurilishi monitoringi bilan shug'ullanuvchi O'zbekiston Respublikasi Davlat kadastrlari palatasining hududiy boshqarmalari statistika hisobotlari;
- e) foydalanishga topshirilgan yakka tartibdagi uy-joylarni tanlama statistik kuzatuvi ma'lumotlari;
- f) yakka tartibdagi uy-joylarni xo'jalik usuli bilan ta'mirlash hajmini statistik baholash.

---

Tayyorlash uchun mas'ul:

Investitsiyalar va qurilish  
statistikasi boshqarmasi

Ijrochi:

L. Haitov  
66 235-60-82 (3020)

Manzil:

